

5-"A" sinf matematika darsi

Mavzu: Burchaklarni o'lchash. Transportir.

Dars maqsadi:

- ta'limiy maqsad:** o'quvchilarning burchak va uni transportir yordamida o'lchash haqidagi tushunchasini shakllantirish.
- tarbiyaviy maqsad:** o'quvchilarni ongli intizom ruhida tarbiyalash hamda ularda chizmalar asosida estetik didni shakllantirish.
- rivojlantiruvchi maqsad:** o'quvchilarda mustaqil ishlash qobiliyatini va hozirjavoblikni oshirish.

Shakllantirilayotgan kompetensiyalar: Matematik tushunchalarni tasavvur qilish va anglash. Mantiqiy tahlil. Matematik bilimlarni amaliyotda qo'llash.

Amaliyotga oshirish usuli: amaliy masalalarni yechish. Nutqda matematik terminlarni savodli qo'llay olish. Tashabbus ko'rsatish, tadbirkorlik, masalalar yechishda faoliyat ko'rsatish bo'yicha bilimlarni oshirish.

Dars turi: yangi bilim berish.


Dars jihozi: AKT, darslik.

I. Tashkiliy qism:

1. Salomlashish. (ingliz tilida)
2. Davomatni so'rash. (ingliz tilida)
3. Uy topshirig'ini so'rash. (ingliz tilida)

Uy vazifasini tekshirish:


№14 O nuqtadan chiquvchi OP, OR, OS nurlarni chizing. Hosil bo'lgan barcha burchaklarni yozing. Bu nurlar tekislikni nechta bo'lakka ajratadi?



- 1) <POS
- 2) <POR
- 3) <ROS

Bu nurlar tekislikni 3 ta bo'lakka ajratadi.

№15 Daftar katagidan foydalanib to'g'ri burchak chizing va uni belgilang.




№16 a) tomonlari **4 sm** va **6 sm** bo'lgan to'g'ri to'rtburchak chizing.

b) tomoni **5 sm** bo'lgan kvadrat chizing.

Hosil bo'lgan to'g'ri burchaklarni yozing.

a) $AB=CD= 6 \text{ sm}$

$AC=BD= 4 \text{ sm}$




1) $\angle ACD$

2) $\angle ABD$

3) $\angle BDC$

4) $\angle BAC$



II.O'tilgan mavzuni so'rash: "Aqliy hujum" ("Sanamay sakkiz dema")

1) Burchak deb nimaga aytiladi?

(1) 1 ta nuqtadan chiquvchi, 2 nurdan iborat shaklga burchak d-di.

2) Burchakning uchi deb nimaga aytiladi?

(2) Nurlarning birlashgan umumiy nuqtasi burchakning uchi deb aytiladi.(O nuqta)

3) Burchakning tomonlari deb nimaga aytiladi?

(3) Burchakning uchidan chiquvchi 2 nur uning tomonlari bo'ladi.)

4) Burchak qanday belgilanadi?

(4) Burchak uchiga 1 ta harf qo'yish bilan yoki 3 ta harf yordamida belgilanadi.Mn:<O yoki <AOB (<BOA) bunda burchakning uchi o'rtada yoziladi.)

5) Yoyliq burchak deb nimaga aytiladi?

(5) Yoyliq burchak deb tomonlari bir-birini to'ldiruvchi nurlardan iborat burchakka aytiladi.)

6) to'g'ri burchak deb nimaga aytiladi?

(

7) Burchak bissektrisasi deb nimaga aytiladi?

(7) Burchak bissektrisasi deb uning uchidan chiqib, burchakni teng 2 burchakka ajratuvchi nurga a-di.

8) To'g'ri burchak yoyliq burchakning qanday qismini tashkil qiladi?

8) To'g'ri burchak yoyliq burchakning $\frac{1}{2}$ qismini tashkil qiladi.(yarmiga teng)

2

III.Yangi bilim berish:

Reja:

1) Burchakning o'lchov birligi .

2) Burchakni o'lchash asbobi.

3) Otkir va o'tmas burchaklar.

Burchakning o'lchov birligi . Har qanday kattalikni o'lchash uchun o'lchov birligini tanlash kerak.

Mn: uzunlik o'lchov birligi: mm; sm; dm; m; km

og'irlik o'lchov birligi: g; kg; sr; t

yuza o'lchov birligi: mm^2 ; sm^2 ; dm^2 ; m^2 ; ar; ga; km^2

vaqt o'lchov birligi: sekund; minut; soat; sutka; oy; yil; asr; era.

tezlik o'lchov birligi, hajm o'lchov birligi.

Burchaklarni o'lchash uchun ham oldin o'lchov birligi ni tanlaymiz.

1) Yoyiq burchakni uning uchidan chiquvchi nurlar bilan 180 ta teng burchaklarga bo'lamiz.

2) Bu burchaklarning ixtiyoriy bittasini birlik burchak sifatida olamiz.

3) Uning burchak qiymati-

ni "1 gradus" deb olamiz va "10" deb belgilaymiz.

$$\angle AOB = 180^0$$

yoyiq burchakning gradus o'lchovi 180^0 ga teng, chunki uning ichki sohasida 180 ta birlik burchak joylashgan.

To'g'ri burchak yoyiq burchakning yarmiga teng.

$$\angle AOB = 180^0$$

$$180^0 : 2 = 90^0$$

$$\angle AOD = \angle DOB = 90^0$$

Burchakni o'lchash asbobi


Burchaklar transportir deb nomlangan asbob bilan o'lchanadi.

asosi: chizg'ich


yuqori qismi:

yarim doira shaklidagi 180 ta shkala chiziqlaridan iborat.

Har bir yoycha 10 li burchakni aniqlaydi.



Transportir



Transportir markazi

o'tkir va o'tmas burchaklar

$$\angle AOB = 60^\circ$$

$$60^\circ < 90^\circ$$



$$\angle COB = 30^\circ$$

$30^\circ < 90^\circ$ To'g'ri burchakdan, ya'ni 90° dan kichik bo'lgan burchaklar *o'tkir burchaklar* d-di.


$$\angle AOB = 120^\circ$$

$$120^\circ > 90^\circ$$

Gradus o'lchovi 90° dan katta va 180° dan kichik bo'lgan burchaklar *o'tmas burchaklar* d-di.



a) o'tkir burchaklar qaysi? b) o'tmas burchaklar qaysi?




IV mustahkamlash:

№1 Qulochingizni yoyib qo'llaringiz bilan a) 90^0 li; b) 180^0 li burchaklarni ko'rsating.


№2 Tik turgan joyingizda a) 90^0 ; b) 180^0 ga buriling.

№3 soatning minut mili:a)15 minut,b) yarim soat; d)1 soatda necha gradusga buriladi?



№4 Gradus o'lchovi berilgan quyidagi burchaklardan qaysi biri o'tkir burchak? qaysi biri o'tmas burchak?

22° , 165° , 23° , 90° , 178° , 154° , 101° , 99° .



Og'zaki hisob

• $3,6$ va $3,8$ sonlari yig'indisini top.

$7,4$

• $4,8$ va $1,5$ sonlarining ayirmasi

$3,3$

• $1,2$ sonini 4 marta oshiring

$4,8$

• $1,8$ va 9 sonlarining bo'linmasi.

$0,2$

• $6,4$ ni 4 marta kamaytiring

$1,6$

• 90 soni $0,9$ sonidan qancha katta ?

100

• 420 soni 70 sonidan necha marta katta


6

• 60 ning $\frac{1}{4}$ qismini toping.

15

4

Uchta qopda 1,97 sr un bor. Birinchi va ikkinchi qopdagi un massasi teng. Uchinchi qopda esa birinchi qopga qaraganda 0,11 sr ko'p un bor. Har qaysi qopda qanchadan un bor?



Berilgan:

1-qop _____ ? sr

2-qop _____ ? sr

3-qop _____ 0,11 sr ortiq

1,97 sr



Yechish: 1 sr = 100 kg

1,97 sr = 197 kg

0,11 sr = 11 kg

1) $197 - 11 = 186$ kg

2) $186 : 3 = 62$ kg

3) $62 + 11 = 73$ kg

Javob: 1- va 2-qoplarda 62 kg dan, 3-qopda 73 kg un bor. (Yoki: 0,62 sr ; 0,62 sr ; 0,73 sr)

V. Baholash.

VI.UYGA VAZIFA: № 17-18-19-20